

AMIR TEMUR SHAXSIYATI JAHON OLIMLARI TALQINIDA

Paxriddinova Dilhumor

Far DU akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada buyuk sarkarda, davlar arbobi Amir Temur shaxshiyati uchun xos bo'lgan jihatlar, jahon tarixchilarining u haqida bildirilgan fikrlari bayon qilingan.*

Abstract: *This article describes the unique aspects of the personality of the great commander and figure of the times, Amir Temur, and the opinions of world historians about him.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Tuzlukka, Arab va Ajam mamlakatlari, Usmonli imperiyasi sultoni Yildirim Boyazid I, Qora Yusuf Turkman ig'vosi.*

Keywords: *Amir Temur, Tuzlukka, Arab and Persian countries, Sultan of the Ottoman Empire Yildirim Bayazid I, Kara Yusuf Turkmen leader.*

Butun dunyoda Amir Temur shaxsiga qiziqish uning faoliyatini o'rganish bo'yicha turli tadqiqotlar o'tqazilmoqda. Xususan, uning Arab va Ajam mamlakatlariga qilgan yurishlari, nafaqat tarixchilar balki butun manbalarda ham alohida qayd etilgan. "Amir Temur Arab, Ajam, Iroqlaridan qaytdi uning bu mamlakatlarga qo'ygan qadami zafar olib kelgan edi. Bu hol Shayx Ibrohim uning huzuriga kelib, o'z qo'lida bo'lgan iqlimlar kalitlarini unga topshirganidan va itoat injusini Temurning bo'yniga taqib uning xizmatida qo'l qovushtirib turgandan va Temur qullari qatoriga qo'shilib, Temur uni o'z o'g'li maqomida ko'rgandan keyin bo'lgan edi"¹ Arab tarixchisi Ibn Arabshox Amir Temur mamlakatlarni bosib olishda, davlat qurish bobida o'zi qo'llagan ishlarni Tuzlukka yozib qo'ygan edi. Bu farzandlari, nabiralari uchun tayyor qo'llanma bo'lib, Amir Temur ham bundan farzandlari, nabiralari foydalanishini xohlagan. Bu tuzlukda xatto saltanat ishlarini boshqarishda ham pand nasihatlar qayd etilgan. "Mamlakatlarni fath etguvchi baxtli farzandlarim va jahonni idora etguvchi qudratli nabiralaringa ma'lum bo'lsinkim, Tangri taolo dargohidan umidim shulki, ko'plab farzandlarim, avlodu zurriyotim saltanat taxtiga o'tirib, mamalakatni idora etgay. Shuning uchun saltanat qurish, davlat tutish bobida o'zining qo'llagan ishlarini bir necha tuzukka bog'ladi va saltanatni boshqarish haqida qo'llanma yozib qoldirdi, toki farzandlarim,avlodim va zurriyodimdan bo'lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin. Mehnat u mashaqqatlar, ko'p harbiy yurishlar, urush talashlar bilan Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin. Tolei baland xalqning sharofati, on hazratning ulug'vor avlodi, qimmatli sahobalarga beg'araz muhabbatim, do'stligim orqali qo'lga kiritgan davlat va saltanatni saqlagaylar. Bu tuzuklardan saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lgay."² Amir Temur Hindistonda

¹Ибн Арабшох. Амир Темур. – Т: Маънавият, 1982. – Б 146-147.

² А.Соғуний, А.Ахмедов. Темур Тузуклари. –Т: Шодлик. 2018, – Б 69.

1398-yil 18-dekabrda bosib olgan. Temur hokimlar orasida munosabatlarni bir xilda ushlab turgani uchun unga hurmatlari baland bo'lgan. Amir Temurga hokimlardan shikoyat kelsa albatta borib hal qilgan, ular ichida nizolar yuzaga kelsa o'zining kengashida chora-tadbirlari ko'rilgan. "1399-yil 27-aprel kuni Temur Hindistondan zafar qozonib qaytganimdan keyin hali safar charchog'i chiqmay ikki Iroq hokimlaridan menga arznoma keldi. Yozishlaricha, Gurjiston kofirlari haddilaridan oshib chegarani buzgan emishlar. Men hamisha podshohlar uchun kofirlarga qarshi g'azovot qilishdan, mamlakatlarni zabt etishdan va jahongirlikdan yaxshiroq ish yo'q degan fikrda edim. Gurjiston iymonsizlarining tug'yon ko'targani haqidagi xabar kelishi bilanoq kengash o'tkazib, o'sha diyordagi boshqa buzuqi odamlarning ham bosh ko'tarishiga yo'l ochilmasin deya, zudlik bilan ularni daf etishga tutindim. Hind yurishidan kelgan sipohiylarimga "xohlovchilar" shu yerda qolsin, xohlovchilar men bilan borsin deb ixtiyorni berdim. Xuroson, Qandahor, Seyiston, Kermon, Tabariston, Gilon, Mozandaron va fors viloyatlaridagi lashkarlarimga jang hozirligini ko'rib Isfahon atrofiga kelib mening zafarli lashkarimga qo'shilsinlar deb yorliqlar jo'natdim. Har bir mamlakatdagi itoatdan bo'yintovlovchilarni turli yerlarga tarqatib yuborishni maslahat ko'rdim. Chunonchi, Xuroson va Forsdagi bo'yin to'lovchilarni Turon zaminiga ko'chirdim va bu mamlakatlarning sadhini ularning muxolifligidan tozaladim."³ Temur juda ham ko'p davlat va shaharlarga yurish qilganliklarini bilamiz. Hatto, Shom shaharlarini zabt etgan Amir Temurning shon-shuhrati va qudratining dong'i Usmonli imperiyasi sultoni Yildirim Boyazid I (1389-1402)ning qulog'iga qadar yetib borganiga tarix guvoh. U 1403-yil 8-mart kunida Oqshahar shahrida vafot etgan. O'rta asrlarda bitilgan tarixiy manbalarda aks ettilishicha, Rum mamlakati sultonlari shu nom bilan tilga olingan. Temur Misr va Shomga 1399-1401-yillarda jang qilgan. "Mening shon shuhratim va qudratim ovozi (Rum) Yildirim Boyazid I ning qulog'iga yetdi. U o'ziga qarashli Sivos hamda Malatya qal'alari hamda ularga tobe yerlarni zabt etganim, qal'alar ichidagi askarlarning barisini tarqatib, tevarak atrofga sohib tashlaganim haqidagi xabarni eshitgach, tomirlaridagi g'ayrat harakatga keldi va lashkarim zarbasidan qochib Boyazid qoshida panoh topgan Qora Yusuf Turkman ig'vosi bilan ustimga lashkar tortishga qaror qildi. Boyazid baloga yo'liqib davlat vayron bo'lishi yaqinlashib qolgan edi. Chunki u Qora Yusufning ig'vosiga uchib menga qarshi lashkar tortgan edi. Misr va Shom qo'shinlarini ham yordamga chaqirgan edi. Men kengashib lashkarimni uch favjiga ajratsam, yaxshi bo'lar dedim. Biroq, jangda yengish yengilish ishi taqdir pardasi ostida yashirinligi bois bu to'g'rida amirlarim bilan kengash o'tkazdim. Ular sipohiylarga xos ish tutib, urush ochmoqni maslahat berdilar. Shunday bo'lsa ham men Boyazidning g'ayrat o'tini achchiq-chuchuk gap bilan so'ndirmoqni maslahat ko'rdim va unga maktub yo'lladim. Xatning qisqacha mazmuni shunday edi; Yeru ko'kni yaratgan Tangri taologa cheksiz shukrlar bo'lsinkim, yetti iqlim mamlakatlarining ko'pini mening farmonimga kirgizdi va olam sultonlari, hokimlari menga egilib ,itoat halqasini jon quloqlariga taqdilar. O'z qadrini bilib, haddidan oshmay jasorat oyoqlarini tiygan bandasini

³ А.Согуний, А.Ахмедов. Темур Тузуклари. –Т: Шодлик 2018, – Б 62-63.

Tangri yorlaqasin. Sening naslu-nasabing qayerga borib taqalishi jahon xalqi oldida ma'lumdur. Shunday ekan holingga munosib ish tutib, jur'at oyog'ini oldinga qo'ymagilki, ranju mehnat balchig'iga botib, balo chuquriga yiqilgaysan. Iqbol eshigidan haydalgan bir to'da ig'vogar kishilar g'arazli ishlarini bajarish uchun sening panohingdan joy olib, uhlab yotgan fitnani uyg'otmish. Yana o'shalarining ig'vosi bilan davlating yuziga ofat va balo eshigini ochmag'il. Darhol Qora Yusufni mening oldimga yuborgil. Yo'q esa taqdir pardasi ikki lashkar saflari to'qnashganda yuzingga ochilg'usidur. Maktubni tanilgan elchilarim bilan Boyazidga yuborganimdan keyin Shom poytaxti (Damashq) qa borib turishga qaror qildim. Hums va Halab yo'li orqali u yerga ravona bo'ldim. Halab shahriga yetganimda Misr podshohi Malik Barquq o'g'li Malik Faraj mening Damashqqa kelayotganimni eshitib, shoshilinch ravishda Misrdan Damashqqa qarab yo'l olgani haqida xabar keltirdilar. Men Misr va Shom lashkarlarining qo'shilishiga yo'l qo'ymaslik uchun zudlik bilan o'tlanib, oldinga yurdim. Lekin Malik Faraj abjirlik qilib mendan oldinga Damashqqa yetib oldi. Shunday bo'lsa ham men uning orqasidan shaharga yetib borib va Damashqni zabt etdim.⁴

Bundan ko'rinadiki, Amir Temur shaxsiyati necha asrlardan buyon tarixchi va tadqiqotchi olimlarni diqqatini tortib kelmoqda. Mazkur maqolada buyuk sarkarda shaxsiyatiga doir ayrim qarashlarni bayon etib o'tdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. А.Согуний, А.Ахмедов. Темур Тузуклари. –Т: Шодлик 2018.
2. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур. – Т: Маънавият, 1982.

⁴А.Согуний, А.Ахмедов. Темур Тузуклари. –Т: Шодлик 2018, – Б 64-65